O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

RAQAMLI IQTISODIYOT KAFEDRASI

"TASDIQLAYMAN"

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori
M.E. Po'latov
2023 yil "29" 08

Ro'yxatga olindi: №BD-60410100-2.4
2023 yil "29" 08

KORXONA IQTISODIYOTI

FANINING

O'QUV DASTURI

Kunduzgi bo'lim uchun

Bilim sohasi:	300 000 –	Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohas:	310 000 –	Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60310400	– Iqtisodiy xavfsizlik

SAMARQAND – 2023

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
ENTECO4	2023 - 2024		6
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Tanlov	O'zbek		4
1. Fanning nomi	**Auditoriya mashg'ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta'lim (soat)**	**Jami yuklama (soat)**
Korxona iqtisodiyoti	90	90	180

I. FANNING MAZMUNI

2. Mamlakatimiz iqtisodiyotini mutanosib rivojlantirish, uning samarali tarkibiy tuzilmasiga ega bo'lish va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish Vatanimiz taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun esa, avvalo, iqtisodiyotning real sektorini jadal rivojlantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi farmonida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari alohida muhim o'rin egallaydi. Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobiga iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda mintaqada ishlab chiqarishni mahalliylashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish, avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperasiyasini kengaytirish Strategiyaning eng ahamiyatli vazifalari qatoridan o'rin olgan.

Bu vazifalarni hal qilish nazariy va amaliy bilimlarni mustahkam egallagan, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni hal etishda ijodiy qo'llay oluvchi, masalani to'g'ri o'rgana oluvchi, uni nihoyasiga yetkazish bo'yicha qulay qaror qiluvchi mutaxassislarga bog'liqdir.

Talabalarda ana shunday bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda "Korxona iqtisodiyoti" fanining ahamiyati kattadir.

"Korxona iqtisodiyoti" fani tarmoq va soha fanlari blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2 kursda o'qitiladi. Fanni o'rganish jarayonida O'zbekiston Respublikasining qonunlaridan, iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha hukumat qarorlari, meyyoriy hujjatlar va yo'riqnomalardan foydalaniladi. "Korxona iqtisodiyoti" fani "Iqtisodiyot nazariyasi", "Tadbirkorlik asoslari", "Milliy va jahon iqtisodiyoti", "Marketing", "Menejment", "Soliq va soliqqa tortish", "Servis tizimi faoliyati asoslari" va boshqa bir qator fanlar bilan uzviy bog'liq.

Ushbu fanda korxona iqtisodiyoti va innovasiyalar bilan bog'liq jarayonlar, korxonani tashkil etish va faoliyatini to'xtatish, korxonani boshqarish, korxona faoliyatini rejalashtirish va prognozlash, ishlab chiqarishning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va tijorat siri, real sektorda innovasion faoliyat tushunchasi, innovasion faoliyatning funksiyalari va innovasiyalar tasnifi, innovasion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi, innovasiyalar portfelini shakllantirish masalalari atroflicha o'rganiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy qonunlarning amal qilishidagi o'ziga xos xususiyatlari va bu qonunlarning harakat qilish mexanizmini va ulardan foydalangan holda korxonalarni maqsadga muvofiq tashkil etish va yuritish yo'llarini hamda usullarini o'rgatadi.

Fanning asosiy vazifalari:

- nazariyada va amaliyotda qo'llaniladigan iqtisodiy kategoriyalar;
- korxonaning boshqaruv tuzilishini va ishlab chiqarishni tashkil etish usullari;
- korxona faoliyatini tahlil qilish, rejalashtirish va prognozlash usullarini;
- korxona faoliyatini tartibga solish prinsiplari va usullarini;
- ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash usullari;
- turli mulk shakllariga asoslangan korxonalarni tashkil etish va ularni iqtisodiy jihatdan mustahkamlash yo'llari;
- ishlab chiqarish jarayonlarida sodir bo'ladigan qonuniyatlarni aniqlash va shu orqali ishlab chiqarish jarayonlariga iqtisodiy baho berish yo'llarini, usullarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy qilish;
- mehnatni tashkil etish va uni rag'batlantirishning eng mukammal tizimini ishlab chiqishni va joriy etish yo'llarini;
- korxona faoliyatini yuritishda sodir bo'ladigan turli vaziyatlarni tahlil qilish, to'g'ri xulosalar qilish, tavsiya va takliflar kiritish.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

1- Mavzu: "Korxona iqtisodiyoti» kursining mazmuni va vazifalari.

Iqtisodiyot-fan va ishlab chiqarish faoliyatining sohasi sifatida. "Korxona iqtisodiyoti"-iqtisodiy fanning tarkibiy qismi va bilimlar sohasi tarkibiy qismi. "Korxona iqtisodiyoti" kursining mazmuni, vazifalari va boshqa fanlar bilan aloqasi.

"Korxona iqtisodiyoti" fanining boshqa fanlar kabi o'rganish funktsiyasini bajarishi. Uning predmeti, o'rganish usullari va metodologik asoslari.

2- Mavzu: Korxona – mustaqil xo'jalik yurituvchi bozor sub'ekti.

Milliy iqtisodiyotning rivojlanishida korxonaning o'rni va roli. Ishlab chiqarishning asosiy bug'uni sifatida — korxonaning xususiyatlari. Korxonaning belgilari, funktsiyalari va vazifalari. Korxonalarni tasniflash. Korxona tuzilmasi va uni belgilovchi omillar.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini uzluksiz oshirib borish, makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznesni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar.

3- Mavzu: Korxonani tashkil etish va uning faoliyatini to'xtatish

Korxonani tashkil qilish tamoyillari. Ta'sis hujjatlari. Korxonalarning davlat tomonidan ro'yxatga olinishi va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida yengilliklar berilishi. Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun taqdim

etiladigan hujjatlar.

Korxona faoliyatini to'xtatish sabablari va shakllari.Korxonaning o'z ixtiyoriga ko'ra tugatilishi. Moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan korxonani tugatish tartibi. Bankrotlik alomatlari bo'lgan korxonalarni tugatish tartibi.

4- Mavzu: Korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar

Korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar haqida tushuncha va ular tavsifi. Tashqi va ichki omillar va ularning korxona faoliyati natijalariga ta'siri. Korxona iqtisodiyotining barqaror rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.

5- Mavzu: Korxonani boshqarish.

Korxona faoliyatini boshqarishning zaruriyati, maqsad va vazifalari. Boshqaruv zamonaviy korxonalar faoliyatida ob'ektiv zaruriyat sifatida. Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi sharoitida korxonani boshqarishning tamoyillari, maqsad va vazifalari.

Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari va funktsiyalari. Korxonani boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari. Korxonani boshqarishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

6- Mavzu: Korxona faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish.

Korxona faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilishning zaruriyati, tamoyillari va vazifalari. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirish va bashorat qilishning iqtisodiy tabiati va ob'ektiv zaruriyati. Korxonada rejalashtirishning uslubiy asoslari, tamoyillari va vazifalari. Korxona ishlab chiqarish dasturini tayyorlash.

Rejalashtirish texnologiyasi va korxona rejalari tuzilmasi. Biznes-reja, uning mazmuni va ishlab chiqish tartibi. Korxonalarda rejalashtirish va bashorat qilish.

7- Mavzu: Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi.

Samaradorlik – korxona ishlab chiqarish faoliyatida muhim o'lchov birligidir.Xo'jalik yuritish samaradorligining mezon va ko'rsatkichlari. Korxona faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari va omillari.

8- Mavzu: Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati.

Korxona asosiy fondlarining mohiyati, tarkibi va tuzilmasi. Korxonada asosiy fondlarning eskirishi, ularni baholash va ta'mirlash. Asosiy fondlardan foydalanishni yaxshilash yo'llari va ko'rsatkichlari. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati.

Korxonada asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Korxonada asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar. Korxonada asosiy vositalar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar.

9- Mavzu: Korxonaning aylanma mablag'lari

Korxona aylanma mablag'larining mohiyati, tarkibi va normalashtirishlishi. Aylanma mablag'lar tushunchasi, iqtisodiy tabiati va ularning korxona faoliyatidagi ahamiyati. Aylanma mablag'larning tuzilmasi va harakati hamda ularning korxona iqtisodiyotiga ta'siri.Aylanma mablag'larni normalashtirish. Aylanma mablag'lardan foydalanish ko'rsatkichlari va ularning aylanishini tezlashtirish yo'llari.

Korxonada aylanma mablag'lar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Korxonada aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar. Korxonada aylanma mablag'lar samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar

10- Mavzu: Korxonada kadrlar va mehnatga haq to'lash.

Kadrlar siyosati va uning korxona faoliyatidagi roli. Kadrlar tarkibi va tuzilmasi. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

Korxona mehnat salohiyati samaradorligini baholash mezonlari. Mehnat salohiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, ularning tasnifi va aniqlash yo'llari. Mehnat va uning unumdorligini oshirish kontseptsiyasi. Mehnatga haq to'lashning qoidalari, shartlari va korxonada ish haqini tartibga solish.

11- Mavzu: Korxona faoliyati xarajatlari, daromadi va rentabelligi.

Xarajatlar tushunchasi va ularning tasniflanishi. Moddiy xarajatlar. Mehnat xarajatlari. Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Foyda va uning shakllanish manbalari va taqsimlanish tartibi. Rentabellikning mohiyati va asosiy ko'rsatkichlari. Rentabellikning qo'shimcha ko'rsatkichlari. Korxona sof foydasining taqsimlanish tartibi.

12-Mavzu: Korxonada baho va baholash

Davlatning baho siyosati va uni amalga oshirish zaruriyati. Baho – iqtisodiy kategoriyasi sifatida. Baho va baholashning mohiyati, ahamiyati va zaruriyati. Bahoning funktsiyalari, turlari va tuzilmasi. Uning boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan bog'liqligi. Baholashni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari. Tovar sotishni ko'paytirish. Maksimal foyda olish. Korxonalarning muayyan mavqeini saqlab qolish.

13-mavzu. Mahsulotining sifati va uning raqobatbardoshligi

Sifat tushunchasi va uni oshirish zaruriyati. Mahsulotni ishlab chiqarish va iste'mol xossasi va uning texnikaviy darajasi. Mahsulot (xizmatlar) sifatining tavsifi. Mahsulot sifati ko'rsatkichlari.. Mahsulot sifatinioshirish yo'llari. Mahsulot sifatini yaxshilashni iqtisodiy rag'batlantirish. Standartlar va standartlashtirishning mohiyati, ahamiyati va vazifalari. Xalqaro ISO 9001 standartlari. Sertifikatlar va sertifikatsiyalashning mohiyati va ahamiyati. Attestatsiya va nazorat etish masalalari.

14- Mavzu: Korxonaning investitsion faoliyati.

Korxona investitsiyalarining mohiyati va manbalari. Investitsiyalar korxona ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash vositasi sifatida. Korxonada investitsiyalashning asosiy manbalari va yo'nalishlari. Korxonada kapitallashgan investitsiyalar. Korxonada kapitallashgan investitsiyalarni baholash va qayta baholash.

Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uslublari. Korxonada investitsiyalar portfelini shakllantirish. Kapital qo'yilmalar bo'yicha investitsiya qarorlarini tayyorlash. Investitsiyaga doir pul oqimlari va ularni diskontlashtirish

15- Mavzu: Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va tijorat siri.

Korxona xavfsizligini ta'minlashning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Korxona xavfsizligini ta'minlashning tashkil etish va boshqarish.Korxona xavfsizlik xizmatlari, uning tuzilishi va vazifalari. Korxonaning tijorat sirlari.

III. AMALIY MASHG'ULOTLARLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR (Seminar mashg'ulotlari)

1. "Korxona iqtisodiyoti" kursining mazmuni va vazifalari
2. Korxona – mustaqil xo'jalik yurituvchi bozor sub'ekti.
3. Korxonani tashkil etish va uning faoliyatini to'xtatish
4. Korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar
5. Korxonani boshqarish.
6. Korxona faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish.
7. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi.
8. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati.
9. Korxonaning aylanma mablag'lari
10. Korxonada kadrlar va mehnatga haq to'lash.
11. Korxona faoliyati xarajatlari, daromadi va rentabelligi.
12. Sanoat ishlab chiqarishida baho va baholash
13. Sanoat mahsulotining sifati va uning raqobatbardoshligi
14. Korxonaning ivestitsion faoliyati.
15. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va tijorat siri.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogic va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. MUSTAQIL TA'LIM

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1 O'zbekistonda kichik biznes sub'ektlarining rivojlanishi hamda holati.
2 O'zbekiston sanoatida kichik biznesni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash
3. O'zbekstonda yangi tashkiliy-huquqiy turdagi korxonalarning shakllanishi.
4 O'zbekiston sanoatida aksionerlik korxonalarining roli va o'rni.
5 O'zbekiston sanoatida qo'shma korxonalarni hozirgi holati va rivojlanishi.
6 Korxona faoliyatida inqirozli vaziyat.
7 Korxona faoliyatiga ta'sir etuvchi shart sharoitlar.
8 O'zbekistonkorxonalarida boshqarishning tashkiliy tuzilmasining turlari.
9 Biznes-reja va uni tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli.
10 Korxona rejalari tuzilmasi.
11 Korxonada strategik rejalashtirish muammolari.
12 Korxona moliyaviy faoliyatining holatini baholash va uni yaxshilash.
13 Korxonada resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni himoya qilish.
14. Korxonaning asosiy fondlaridan foydalanishni yaxshilash yo'llari.
15 Korxonaning ishlab chiqarish quvvati foydalanishni yaxshilash yo'llari
16Korxonani aylanma mablag'larga bo'lgan talabini rejalashtirishning metodik asoslari.
17 Korxona aylanma mablag'laridan samarali foydalanish yo'llari.
18 Korxona aylanma mablag'lari va uni aylanishini tezlashtirish yo'llari.
19 Ishlab chiqarish korxonalari aylanma mablag'larini normalashtirish va ulardan foydalanishni yaxshilash yo'llari.
20 Korxonalarda kadrlar siyosati va uni darajasini oshirish yo'llari.
21 Korxonada ish haqi fondini shakllantirish va mehnatga haq to'lash.
22 Mehnat unumdorligi-ishlab chiqarishni iqtisodiy samaradorlik mezoni.
23 Korxonalarda mahsulot sotilishi taxlili va rejalashtirilishi.
24 Ishlab chiqarish korxonalari mahsulotining sifati va uning raqobatbardoshligi
25 Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash yo'llari.
26 Ishlab chiqarish korxonalarida baho va baholash.
27 Ishlab chiqarish korxonalari daromadlari.
28 Ishlab chiqarish korxonalarida mahsulot tannarxini kamaytirish yo'llari.
29 Ishlab chiqarish korxonalarida foydani shakllantirish va taqsimlash.
30 Ishlab chiqarish korxonalari rentabelligini aniqlash va oshirish yo'llari.
31 Ishlab chiqarish korxonalarida investitsiyalarning ahamiyati va manbalari
32 Ishlab chiqarish korxonalarining investitsion faoliyati samaradorligini oshirish yo'llari.
33 Ishlab chiqarish korxonalarining innovatsion faoliyati.
34 Harakatlar strategiyasi asosida chukur va keng ko'lamli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish sharoitida korxonaning innovatsion faoliyati.
35 Ishlab chiqarish korxonalarining xavfsizligi va uni takomillashtirish yo'llari.
36 Ishlab chiqarish korxonalarining tijorat sirlari

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni takdimot kilish tavsiya etiladi.

3.	**V. FAN BO'YICHA KURS ISHI (LOYIHASI)** "Korxona iqtisodiyoti" fanidan kurs ishi rejalashtirilmagan.
4.	**VI.Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari** **Talaba bilishi kerak:** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • iqtisodiyotdagi mavjud muammo va vazifalarni mantiqiy ketma-ketligini va o'zaro aloqadorligini; • turli xil iqtisodiy va tashkiliy-texnikaviy tadbirlarni mustaqil hisoblash va to'g'ri

tahlil qilish;

• mahsulot ishlab chiqarish va turli xizmatlar ko'rsatish hajmini oshirish orqali korxonaga kirib keladigan pul oqimini ko'paytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

• mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotishdagi tavakkalchilikni baholash;

• korxonaning iqtisodiy–moliyaviy holatini tahlil qilish;

• ishlab chiqarishni tashkil qilish, rejalashtirish va boshqarishning zamonaviy modellaridan foydalanish;

• mavjud resurslardan samaradorli foydalanish yo'llarini;

• ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlardan kutilayotgan daromadni aniqlash;

• korxonaning iqtisodiy munosabatlar qatnashchisi sifatidagi xuquqiy holatini baholash.

• ishlab chiqarishni joriy va istiqbolli rejalashtirish, prognozlashtirish hamda boshqarish vazifalarini malakali tarzda hal qilish,;

• korxonaning salohiyati va resurslardan foydalanish;

• korxonaning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini baholash va tahlil qilish;

• korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud bo'lgan yo'llarni topish;

• korxona faoliyati yo'nalishlaridagi tavakkalchilikni baholash;

• korxona faoliyatiga moliyaviy resurslarni jalb etish holatini tahlil qilish va pul oqimini ko'paytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

5. **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- esse, tezis va maqolalar yozish;
- interfaol keys-stadilar echish;
- jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
- muhokama ishtirok etish;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni echish;
- so'rov o'tkazish.

6. **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki testni topshirish.

7. **Asosiy adabiyotlar:**

1. Abdukarimov B.A.va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. –T.: "Fan va texnologiya", 2013.
2. E.Shavqiyev va boshqalar. Korxona iqtisodiyoti. Maruzalar kursi. –T.: "SamISI", 2016. Korshunov V. V. Ekonomika organizasii. Uchebnik i praktikum. — M.: Yurayt. 2020. 348 s.
3. Maxmudov E.X., Isakov M.Yu. «Korxona iqtisodiyoti» (O'quv qo'llanma) - T.: TDIU, 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2020.
8. Mirziyoev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 29 dekabr 2021 yil.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida" gi 2022 yil 21yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
10. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. –T.: "Fan va texnologiya", 2013.

Internet saytlari

1.www.gov.– O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2.www.lex.uz– O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3.www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi sayti.
4.www. stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi sayti.
5.http://www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb sayti.

8. Fan dasturi Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti o'quv-uslubiy kengashining 2023 yil 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan. FQ-18-4

9. **Fan/modul uchun mas'ullar:**

S.A.Isxakova – SamISI "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti.

Sh.I.Artikova – SamISI "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi;

10. **Taqrizchilar:**

Джульматова С.Р. – SamISI "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti;

Bozorov B.U. – Sharof Rashidov nomidagi SamDU "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi dots.